



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

N.Hamayev¹, S.Ibragimova²

¹ Farg'ona Davlat Universiteti Jahon tarixi kafedrası katta o'qituvchisi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

² Farg'ona Davlat Universiteti Tarix mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

“HUJUM” KAMPANIYASI TARIXIGA OID MANBALAR TAHLILI

Annotatsiya: Jamiyatda xotin-qizlarning o'rne masalasi doimo qiziqish bilan o'rganib kelingan. Ayniqsa, bu jarayon O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lga kiritgach, o'zining yuqori cho'qqisiga chiqdi. Sovetlar o'sha davrdagi boshqa jamiyatlardan farqli o'laroq o'zbek xotin-qizlari ahvoriga muhim ijtimoiy masala sifatida qaramadi. Aksincha, kommunistik partiya ushbu ijtimoiy-siyosiy masalani o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, keskin hal qilish yo'lidan bordi. Shuning uchun ham bu davrda mazkur masakaga oid sal kam bir asrlik vaqt davomida juda katta hajmdagi manbalar guruhi to'plandi. Mustaqillik yillarida ushbu harakat tarixi yangicha rux, yangicha munosabat asosida tamomila yangi manbalar asosida o'rganilmoqda. Mazkur maqolada ayni harakat tarixiga oid shu kunga qadar yaratilgan manbalar xususida so'z yuritiladi, ular bir necha guruhga ajratib tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: xotin-qizlar, “Hujum”, ayollar emansipasiyasi, ayollar ijtimoiylashuvi, ayollar tengligi, ijtimoiy xodisa, tarixshunoslik, manbashunoslik.

Xotin-qizlarga munosabat masalasi o'ziga xos murakkab ijtimoiy muammolardan biri bo'lsa-da, sovet ittifoqi davrida o'zbek xotin-qizlari ahvoriga muhim ijtimoiy masala sifatida qaralmadi. Sovet hukumati va kommunistik partiya ushbu ijtimoiy-siyosiy masalani o'zining siyosiy va iqtisodiy manfaatlaridan kelib chiqib, keskin tarzda hal qilish yo'lidan bordi.

Islom diniga qarshi kurash bahonasida xalqimizning qadimiy urf-odatları, madaniyati va qadriyatlariga hujum boshlandi.

Xotin-qizlar ozodligi kurash aslida sinfiy kurash emas, dunyoqarashlar kurashi edi. Mazkur kurash asrlar osha islom ongiga muhrlangan o'zbek xalqining o'z tasavvurlaridan majburan voz kechishga qaratilgandi. Bu kurash partiya qo'mitalarining notug'ri ish uslublari asosida sun'iy ravishda sinfiy kurashga aylantirildi.

Shu bois ham, "Hujum harakati" tarixi ham sovet davrida, ham mustaqillik yillarida bir necha bor tadqiqotlar uchun mavzu o'laroq tanlab olingani bejiz emas. Chunki uning tarixiga oid manbalar talaygina. Biz ushbu manbalarni bir necha guruhga bo'lishni lozim topdik:

- 1) Arxiv hujjatlari;
- 2) Davriy matbuot materiallari;
- 3) Memuar manbalar;
- 4) Rasmiy hujjatlar hamda Qonunchilik aktlari;

Manbalarning birinchi guruhiga mansub bo'lgan, O'rta Osiyo, Qozog'iston (jumladan, Farg'ona vodiysi) da "Hujum harakati" ning o'tkazilishi va uning tarixiy oqibatlar aks etgan hujjatlar Rossiya Davlat Ijtimoiy-siyosiy tarix arxivi (Российский Государственный Архив Социально-Политической Истории – РГАСПИ), O'zbekiston Milliy arxivi hamda Farg'ona viloyat davlat arxivi (asosan 121, 93 va 124-fondlar) da saqlanmoqda. Ularda garchi mazkur harakatning butun tarixi haqida bo'lmasa ham, uning o'tkazilish jarayonida yuz bergan salbiy holatlarga oid ma'lumotlar beradi. Jumladan, O'zbekiston Milliy arxivi fondlarida sovet hokimiyatining "Hujum" harakatiga tayyorgarlik ko'rish bosqichi hisoblangan milliy maktablarni tugatish (O'zMA 1010-fond); sovet maktablarini ochish va savodsizlikni tugatish (O'zMA R-25, R-34, 94-, 737-, 837-fondlar) ga oid, shuningdek, "Hujum" harakatini o'tkazishning huquqiy asoslariga, uni o'tkazish shartlari hamda bevosita harakaning tarixi aks etgan hujjatlar (R-17, R-86, R-713, 900-fondlar) saqlanmoqda.

Ko'rilayotgan mavzu tarixi o'z aksini topgan arxiv hujjatlari o'z vaqtida bosheviklar tomonidan ishlab chiqilganligini hisobga olgan holda baho berilishi kerak. Har qanday zukko tadqiqotchi arxiv hujjatlarini tanqidiy o'rganib, boshqa adabiyotlar va manbalar bilan taqqoslab hamda tarixiy tafakkur asosida tahlil etsa, ular "Hujum"ning ko'pgina qirralarini ochib beradi.

"Hujum harakati" tarixining boshlanishi, borishi va tarixiy oqibatlar aks etgan, uning boshqa manbalarda "ko'rinmaydigan" ayrim jihatlari (ko'pincha Farg'ona vodiysining turli qishloqlarida paranjini tashlagan xotin-qizlarga oila a'zolari, yaqinlari yoki mahalladoshlari tomonidan o'tkazilgan tazyiqlar) birinchi bo'lib yoritgan manba bu – davriy matbuot hisoblanadi. Harakatning borish jarayoni asosan gazetalarda aks etgan bo'lib, ularning sahifalarida kampaniyaning o'tkazilishi jarayonidagi ayollar fojeali qismatining qator jihatlari yoritilgan.

Ma'lumki, XX asrning 20–30-yillari O'zbekiston tarixida nihoyatda og'ir yillar bo'ldi. Bu davrning xarakterli tomoni shunda ediki, O'zbekistonda mustabid hokimiyatning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qaror topdi. I.Stalin boshchiligidagi "qizil imperiya" hukumati xalqni asoratga solib turuvchi boshqaruv tizimini ishlab chiqdi va katta kuch bilan hayotga tadbiiq qildi. Bu holat ittifoq tarkibidagi halqlarni "ulug' og'a"ga tobe millatlarga aylantirdi. Bu xalqlar uchun dunyo eshiklari yopildi. Shaxsga sig'inish avj oldirildi. Xalq orasidan yetishib chiqqan fan, madaniyat va davlat arboblari 1937-1939-yillarda siyosiy qatag'on

qurbonlariga aylandilar. Vaholanki, ularning aksariyati qilgan siyosiy xatolari uchun emas, balki siyosiy, ijtimoiy faolliklari uchun qatag'on qilingan edilar. Mana shu kabi jarayonlar 20–30-yillar tariximizni eng muhim onlarga to'ldirib turibdi.

Bu davr ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini to'laonli va ishonarli tarzda ochib beruvchi manbalar sifatida davriy matbuotdan yaxshiroq manbalarni topish amrimahol. Bu davr gazeta va jurnallarimizda hayotimizning turli jabhalarini yorituvchi maqolalar chop etilgan. To'g'ri, ularning aksariyati kommunistik mafkura qobig'iga o'ralgan holda bitilgan, lekin ularni o'rganish bizga bu davr matbuotining oldida qanday vazifalar qo'yilganligidan boxabar bo'la olishimizga imkon beradi. Bundan tashqari bu davrda O'zbekiston SSR tepasida turgan milliy davlat rahbarlarimizdan bo'lgan Akmal Ikromov, Fayzulla Xo'jaev kabilarning davriy matbuotimizdagi chiqishlari ularning siyosiy qatag'on buhrani yaqinlashib kelayotgan yillarda qanday siyosiy pozitsiyani egallaganliklaridan dalolat beruvchi manba bo'lib xizmat qiladi.¹ Bular qatoriga yana shularni ham qo'shishimiz mumkinki, bu davrda chop etilgan gazeta va jurnaldagi yirik sahifalar asosan kommunistik partiyaning qabul qilgan qarorlarining nechog'li "mukammalligi" va "xalqparvarligi"ni madh etishga qaratilib, shu xususdagi turli mavzularga doir turkum maqolalardan iborat bo'lgan². Shuningdek, 30-yillar matbuoti 20-yillarda O'zbekistonda boshlangan qishloq ho'jaligini tubdan isloh qilish ishlarini ayni yillardagi ijrosiga bag'ishlangan maqollalar bilan juda ko'plab chiqishlar qilgan. Chunki, bu davrda O'zbekiston agrar mamlakat bo'lib, SSSRning paxta va g'alla yetishtiruvchi plantasiyasi vazifasini "sidqidil"dan bajarib kelardi.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng chop etilgan yangi jurnallar – "Inqilob", "Alanga", "Yer yuzi", "Yangi yo'l", "Maorif va o'qitg'uvchi" va bir qator rus tilidagi o'nlab nashrlar dunyoga keldi. Ularning har biri ijtimoiy hayotning muayyan muammolarini atroflicha yoritishga xizmat qilgan. Masalan, "Alanga" yangi lotin alifbosini joriy etish maqsadida savodsizlikni tugatish, "Yangi yo'l" – "Xujum" kompaniyasini avj oldirish³, "Maorif va o'qitg'uvchi" madaniyatimizdagi yaigiliklar, "Inqilob" to'ntarish naijalarini ko'rsatish, "Xudosizlar" – dinga munosabatini ifodalash masalalari bilan izchil mashg'ul bo'lgan edi.⁴

Oktyabrdan so'nggi jurnallarning to'ng'ich vakili "Inqilob" ijtimoiy hayot xodisalariga xozirjavoblik bilan munosabat bildirdi. Oktyabr g'oyalari bilan qurollangan bu nashr xalqni sosializm utopiyasiga ishontirishga xizmat qildi⁵.

Bu davrda jurnallarning asosan sovet, partiya, armiya, yoshlar, dehqonlar, kasaba uyushmalari, kooperativ hayoti kabi masalalarni yorituvchi va boshqa turlari nashr etildi.

Ayniqsa gazeta va jurnallar sahifalarida "Hujum" kompaniyasining o'tkazilishi bilan bog'liq materiallar muntazam ravishda berib borildiki, ularni manbashunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish mazkur masalaning bugungi kunda ham dolzarbligini ko'rsatish imkonini beradi.

O'z vaqtida o'zbek matbuoti jamiyat hayotining turli jabhalarini yoritib beruvchi davriy nashrlarni tashkil etdi. Masalan, aynan xotin-qizlar masalasi, "Hujum" kompaniyasining

¹ Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Т., 2002. – Б. 35.

² Эрназаров Т. История печати Узбекистана. – Т., 1977. – С. 87.

³ С.Х. Хотин-кизлар озодлигининг ленинча кўйилиши // Янги йўл. 1927. - № 3. – Б. 5; Башорат Жалол. 8 мартга бир совго // Янги йўл. 1927. - № 3. – Б. 11; Елена Гилоткуво (Елена Глазкова). Очилган ўзбек хотин-кизларига кўмак // Янги йўл. 1927. - № 7. – Б. 5; Янги йўл. 1927. - № 10. – Б. 31; Шариат ва шўро қонунида хотин-кизлар // Янги йўл. 1929. - №4. – Б. 8-9; Саноатда хотин-кизлар меҳнати// Янги йўл. 1931. – №3. – Б. 5-6. va h.

⁴ Эрназаров Т. История печати Узбекистана. – Т., 1977. – С. 90.

⁵ Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Т., 2002. – Б. 39.

borishini yoritib borish asosiy maqsadi bo'lgan “Kommunistka”⁶, “Yangi yo‘l” singari nashrlar shular jumlasidandir⁷. “Yangi yo‘l” va “Kommunistka” jurnallari nashr etilishi avvlidanoq mazkur harakatni yoritishni asosiy maqsad qilib olganligi uchun, hali “Hujum” kampaniyasi boshlanmasdan turib, uning fevraldagi dastlabki sonlaridan birida “ayollarni ozod qilish masalasi” tor millatchi, aksilinqilobiy ziyolilar g‘oyalariga emas, balki lenincha asosga qo‘yilishi kerakligi Sobira Xoldorva tomonidan ta’kidlangan edi”⁸. Lekin ushbu nashrlar uzoq vaqt chop etilmadi. O‘zbekiston hududida ayollarning “tengligi” muammosi nisbatan hal etib bo‘lingach, 1930-yilda “Kommunistka”, 1934-yilda esa “Yangi yo‘l” nashrlari faoliyati to‘xtatildi.

Aytish mumkinki, “Hujum” kampaniyasi tarixi asosan markaziy nashrlar sahifalarida ko‘proq yoritilgan. Jumladan, “Pravda”, “Pravda Vostoka” singari gazetalarda ayollar masalasiga oid qator maqolalar berib borildi. Nashr etilgan maqolalarning ko‘pchiligi “xujum”ning borishi va ayollarning “ozodlikka chiqishi”, bu jarayonda sovet hokimiyatining adolatparvarligi, erkaklarning unga munosabatini yoritishga bag‘ishlandi⁹.

“Qizil O‘zbekiston” gazetasi ham “Pravda” gazetasi singari yo‘l tutdi. Ushbu gazetada ham yangi sahifa va rubrikalar paydo bo‘ldi. Jumladan, gazetaning “Tashviqotchilar burchagi” (Уголок пропогандиста) sahifasi targ‘ibot va tashviqotchilarga ko‘maklashuvchi materiallarni chop etdi. Bundan tashqari gazetaning “Fan va texnika yangiliklari”, “Paxtachilik texnikasini o‘rganamiz” nomli sahifalarida XVII s‘ezd ikkinchi beshyillik uchun qo‘ygan rejalarni bajarish uchun fan va texnika yangiliklaridan keng foydalanish bilan bog‘liq materiallar berib borildi. Shu qatori ushbu gazetada “Xujum davom etadi”, “Paranjiga qarshi”, “Olg‘a ho‘jaliklar” nomli sahifalar bilan ham boyidi.

30-yillar shuningdek, O‘zbekiston hayotida madaniy yangilanish davri ham bo‘ldi. Albata bu yangilanish kommunistik partiya tomonidan olib borildi. Bu “yangilanish” o‘zbek halqi uchun o‘zining asrlar davomida amal qilib kelgan milliy urf-odatlaridan kechish bilan ham belilandi. Respublikadagi bir qancha gazeta va jurnallar ushbu jarayonni keng yoritishga xarakat qildi. Bu baroda bir qancha yangi gazeta va jurnallarni paydo bo‘lganligini ham aytib o‘tish lozim. Masalan, ayni shu 30-yillarda “Madaniy inqilob” (“Культурная революция”, “Yangi hayot” (“Новая жизнь”), “Bitsin savodsizlik” (“Долой безграмотность”), “Leninchi o‘qishga yordam” (“В помощь ленинской учёбе”), “Sosialistik fan va texnika” va boshqa gazeta va jurnallar organlari tashkil etildi.

“Hujum” harakati tarixiga oid materiallar yana “Mehnatkashlar tovushi”¹⁰, “Yer yuzi”¹¹, “Yangi Farg‘ona”¹², “Xudosizlar”¹³ kabi matbuot nashrlarida ham berib borildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XX asr 20–30-yillar O‘zbekiston matbuoti juda hayajonli davrlarni o‘z boshidan kechirdi. Chunki, bu davrda respublikamiz hayotida misli

⁶ Любимова С.Т. Декрек о чадре и Обшество “Долой калым и многоженство” // Коммунистка. 1928. - №8. – С. 73.

⁷ Собирова Д. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрининг 40–80-йиллари). Ўқув кўлланма. – Т., 2010. – Б. 9-10.

⁸ Адиб Холид. Ўзбекистон таваллуди. – Т., 2022.

⁹ Валедницкая Г. Щёлковый худжум. Очерки об ударницах Узбекистана // Правда Востока. 15 июня 1928 г.; Правда Востока. 21 декабря 1928 г.; 25 декабря 1928 г.; 10 января 1929 г.; 10 января 1929 г.; Земельно-водная реформа подняла активность женщины Востока // Правда Востока. 12 ноября 1925 г. va h.

¹⁰ Хожи Муин. Хотин-қизлар масаласи // Мехнаткашлар товуши. 198 йил 28 июнь.

¹¹ Чўлпон. Турсуной сахнада // Ер юзи. 1928 йил 30 июнь.

¹² Хамза. Турсуной марсияси. // Янги Фарғона. 1928 йил 5 июль.

¹³ Рашидхон. Ислом ва хотин-қизлар // Худосизлар. 1928. - № 6. – Б. 8-13; Алиуллин. Хотин-қизлар ўртасида // Худосизлар. 1928. - № 6. – Б. 8-13; Фитрат. Зайнаб // Худосизлар. 1928. - № 4. – Б. 28-33.

ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz berdi. Ularning ayrimlari millatimizning hatto ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatdi. Halq xo‘jaligida qilingan o‘zgarishlar matbuotimiz sahifalarining bosh mavzusi bo‘lib qoldi. Kommunistik mafkuraning tazyiqlari natijasida matbuotimizda erkinlik kuzatilmadi. Senzuraning o‘rni yaqqol bilinib turdi. Gazetalarimiz partiyaning tashviqot kompaniyasining “malay”i vazifasini bajarib berdi. Bu davr gazetolari sahifalarini o‘rganish milliy tariximizning xuddi shu davrini o‘rganishda muhim manba bo‘lib qolaveradi.

Mustaqillik yillarida yozma tarixiy manbalarni topish, o‘rganish, tarjima qilish va nashr etishga katta ahamiyat berilmoqda. Natijada xalqimizning ming yillik tarixini o‘zida aks ettirgan ko‘p yozma manbalar, shu jumladan memuar adabiyotlar nashr qilinib, o‘quvchilar hukmiga havola etildi¹⁴. Istiqloq davrida ilmiy jihatdan keng o‘rganilgan bu kabi asarlar talaygina. Shuningdek, ularning orasida “Hujum” kompaniyasi tarixini aks ettiruvchi manbalarning navbatdagi guruhini tashkil etuvchi va sovet hokimiyatining turli yillarda yaratilgan memuar manbalar tashkil etadi.

Ko‘rib chiqilayotgan mavzuga oid memuar yoki shu xarakterdagi asarlar ham talaygina. Ularning ayrimlari O‘zbekiston hududida sovet hokimiyati endi-endi o‘ranashayotgan vaqtlarda yaratilgan bo‘lsa-da, xotin-qizlar masalasiga oid ma’lumotlarni beradi. Masalan, XX asrning dastlabki choragidagi siyosiy-ijtimoiy voqea-xodisalarning bevosita guvohi bo‘lgan ayrim jadidlarning xotira va asarlarida ushbu masalaga oid materiallarni uchratamiz.¹⁵

XX asrda “Hujum” ga bag‘ishlangan memuar xarakterdagi badiiy adabiyot ham shakllandi. Ayni shu turdagi manbalarda ushbu harakat tarixining, uning bevosita ishtirokchilari hamda aholi urf-odatlaridir doirasidagi xurofot va sovet hokimiyatining ayollar ijtimoiy huquqlarini erkaklar bilan sun’iy ravishda tenglashtirish yoo‘lidagi noto‘g‘ri siyosatidan jabrlangan bir qator xotin-qizlarning taqdiri o‘z aksini topgan. Ularda “hujum” kompaniyasi tufayli “yorug‘lik” va “ozodlikka” chiqqan ayollarning nurafshon hayotini ko‘proq bo‘rtirib ko‘rsatishga haraka qilingan. Masalan, o‘z vaqtida Hamza Hakimzoda Niyoziy, Nazir Safarov kabi davlat va jamoat arboblari, adib va yozuvchilar “Hujum” kompaniyasi jarayonlarini o‘z asarlarida yoritib berdilar. Xususan, Hamza o‘zining ijodida o‘zbek xotin-qizlarining huquqiy tengligi va ularning ilmiy bo‘lishiga alohida e’tibor qaratgan¹⁶. “Yangi Farg‘ona” gazetasida 1927 yillar “O‘zbek xotini tilidan”, “O‘zbek xotin qizlariga”, “Ozod xotin-qizlar qo‘shig‘i”, “Bu kun - 8 mart”, “Xotin-qizlar ovozi”, 1928 yilda esa “Hujum”, “Muborak”, “Uzilgan chechaklar”, “Tursunoy marsiyasi” kabi she’rlari chop etilgan. Bularning barchasi ayollarni ma’rifatga chorlovchi g‘oyalar bilan sug‘orilgan edi¹⁷. Muallifning bu boradagi fikrlarini ham tanqidiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqish zarur. Zero, Xamzaning yuqoridagi asarlari o‘sha vaqtlarda u sovet davlati idoralarida ishlaganligi shunday fikrga kelishimizga sabab bo‘ldi.

Ayollar emasipasiyasi masalasi o‘z davrining yirik publisisti, dramaturgi, yozuvchi Nazir Safarov ijodining alohida bir mavzusi o‘laroq tarixda qoldi. Nazir Safarovning memuar

¹⁴ Абдурашидхонов М. Хотираларимдан. Т.: Шарқ, 2001; Валидий А.З. Бўлингани бўри ер. Т.: Адолат, 1997; Соғуний А. Туркистон қайғуси. Т.: Шарқ, 2003; Шукрулло. Кафансиз кўмилганлар. – Т. 1991.

¹⁵ Абдурашидхонов М. Хотираларимдан. Т.: Шарқ, 2001; Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy asarlar. – Т.: Ma’naviyat, 2000.; Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 3-jild: Dramalar, maqolalar. – Т.: Ma’naviyat, 2003.

¹⁶ Хонкулов Ш. Х. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг маърифат йўли // Водийнома. Андижон давлат университети. 2019. № 4 (15). – Б. 99-102.

¹⁷ Шокир Сулаймон. Шоирнинг кунлари. Қизил қалам мажмуаси II. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1959. – Б. 10-12.

xarakterdagi eng yirik asari “Ko‘rgan kechirganlarim” hisoblanadi¹⁸. Unda muallif hayotining turli qismlarida yuz bergan voqea-xodisalar bir bolshevikning nuqtai nazaridan bayon qilinadi. Ayniqsa, asarda muallifning bolalik yillarid yuz bergan qo‘zg‘olonlar (1916-yil qo‘zg‘oloni), o‘lkada sovet hokimiyatining o‘rnatilishi, bolsheviklarning sovet turmush tarzini o‘rnatish borasidagi tadbirlari haqida qiziq ma’lumotlar keltirilgan.

N.Safarovning ayollar ijtimoiy tengligi, ularni jamiyat siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotiga shiddat bilan kirib kelishi sovet davlatining buyuk g‘alabalari o‘laroq ulug‘langan¹⁹ qator asarlari mavjudki, ushbu asarlar o‘zi yoritayotgan davrning asl mohiyatini anglashimizda katta yordam beradi. Lekin ushbu asarlarni ham badiiy asarlar ekanligini hisobga olib, ulardagi konkret tarixiy faktlarni boshqa manbalar (masalan, arxiv hujjatlari, davriy matbuot materiallari) hamda ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar bilan solishtirgan holda o‘rganish zarur.

Yuqoridagi fikrlarimizga xulosa sifatida shuni aytmoqchimizki, O‘zbekistonning sovet davri tarixi turli yozma manbalar qatorida memuar adabiyotlarda o‘z aksini topgan. Sho‘rolar davri tarixini o‘zida aks ettirgan mazkur asarlar qisman sovet davrida, qisman (juda sanoqlilari) mustaqillik davrida yozilan. Ular o‘z mazmuni, xususan, mualliflarning sovet hokimiyatiga munosabati nuqtai nazaridan tubdan farq qiladi. Sovet hokimiyatiga muxolifatda bo‘lgan mualliflar o‘z asarlarida bu hokimiyatning amalga oshirgan ishlariga salbiy nigoh bilan qarardilar. Ammo sovet davrida yashab, unga xizmat qilgan, siyosat yoki madaniyat bobida yuqori mansablarga erishgan arboblarning esdaliklari esa kommunistik mafkura ruhida yozilib, unda sovet hokimiyati hamda bu erda amalga oshirilgan “sotsialistik islohotlar”ga ijobiy munosabat bildirilardi. Bundan kelib chiqib, sovet davri memuar adabiyotlaridan foydalanishda ularga ehtiyotkorlik bilan yondashish, har bir esdaliklardagi mavzularning boshqa tarixiy manbalar bilan qiyosiy tarzda solishtirib, o‘rganish zarur degan xulosa chiqarish mumkin.

Memuar adabiyotlarning g‘oyaviy asosi hamda mazmun-mohiyatining xilma-xil bo‘lishiga qaramay, ularni birlashtiradigan umumiy xususiyatlari ham bor. Ana shunday xususiyatlardan biri – bu ularda o‘tmishning jonli lavhalari, manzarlarining o‘z aksini topishidir. Ba‘zan esdaliklardagi bitta yoki ikkita hayotiy lavha butun bir davr yoki hodisaning mazmun-mohiyatini namoyon etadi. Bu hol tarixni teranroq jonliroq tarzda idrok etish imkoniyatini beradi.

“Hujum” kampaniyasi tarixiga oid eng salmoqli va bevosita kampaniya o‘tkazilayotgan vaqtda yaratilgan navbatdagi manbalar guruhini sovet davri davlat idoralari va boshqaruv organlariga oid Rasmiy hujjatlar va qonunchilik aktlari hisoblandi. Ularda ayollarni turli jamoat tashkilotlari va ishlariga jalb qilish hamda “Hujum”ning qonuniy asoslari²⁰,

¹⁸ Сафаров Н. Кўрган кеирганларим. – Т., 1968. – 308 б.

¹⁹ Сафаров Н. Олияхон Султонова. – Т., 1953. – 55 б.; Uning o‘zi. Хадича Ахроровна. – Т., 1953. – 24 б.; Uning o‘zi. Катта карвон йўлда. – Т., 1960. – 96 б.; Uning o‘zi. Қахрамонлик киссаси. – Т., 1953. – 55 б.; Uning o‘zi. Турсуной. – Т., 1960. – 51 б. va b.

²⁰ Декларация прав трудящегося и эксплуатируемого народа. 3 (16) января 1918 г.; О гражданском браке, о детях и о ведении книг актов состояния // Декрет ВЦИК и СНК РСФСР. 18 декабрь 1917 г.; Об отмене калыма // Декрет ЦИК Советов Туркестанской Советской Социалистической Республики. 14 июня 1921 г.; О порядке привлечения работниц и крестьянок к работе в советских учреждениях // Декрет СНК РСФСР 27 апреля 1922 г.; Об охране прав женщин, снявших паранджу // Постановления ЦИК УзССР и СНК УзССР. 7 марта 1927 г.; О мерах по вовлечению женщин в сельскохозяйственную кооперацию // Постановление СНК СССР. 13 октября 1929 г. va b.

o‘tkazish tartiblari²¹, “Hujum” kampaniyasining borish jarayoni va unda ayollarning ishtiroki²², bolshevik kadr sifatida sovet idoralarida ishlayotgan ayollar hayotiga oid ma’lumotlar²³ aks etgan. Ushbu hujjatlar O‘zbekiston, xususan Farg‘ona vodiysi hududlarida “Hujum” ning o‘tkazilishiga tayyorgarlik ko‘rish, aholini ruhan va ijtimoiy jihatdan tayyorlash jarayonlarining aniq kartinasini ko‘rsatib beradi. Ushbu hujjatlarning qimmatli jihati shuki, ular o‘z vaqtida O‘zbekiston hududida zamonaviy davlatchilik va qonunchilik shakllanishini, o‘sha davr yurtimiz aholisining huquqiy-siyosiy ongini davrga moslashtirishda juda katta rol o‘ynagan. Lekin bugungi kun e‘tibori bilan ularning huquqiy qiymati deyarli yo‘q bo‘lgan esa-da, tarixiy nuqtai nazardan o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Yana shu omil ham e‘tibordan chetda qolmasligi kerak: sovet davrida yurtimizda sodir bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar bu yerda mavjud bo‘lgan respublikalar (TASSR, Buxoro va Xorazm SSR, O‘zbekiston SSR) ning Oliy ijroiya organlari – Xalq Komissarlari Soveti (Buxoro va Xorazmda – Xalq Nozirlari Kengashi) va Ministrlar soveti (1946-1991) ning qarorlari va boshqa hujjatlarida o‘z aksini topgan. Mazkur hujjatlar Sovet davri tarixini o‘rganishda birinchi darajali ahamiyatga ega manbalar sanaladi. Lekin bu hujjatlar kommunistik mafkura ruhi bilan yo‘g‘rilganligini esdan chiqarmaslik kerak. O‘sha davrdagi barcha ijtimoiy jarayonlarga sinfiylik pozitsiyasidan yondashish tamoyili bu hujjatlarda yaqqol namoyon bo‘lganligini kuzatish mumkin.

Sovet davrida O‘zbekistonda kasaba uyushmalari, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qo‘mitalari, turli ijodiy va kasbiy uyushmalar faoliyat ko‘rsatar edi. Ammo bu uyushmalarning hujjatlaridan tanqidiy ruhda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ularda mazkur tashkilot va uyushmaning faoliyatiga ba‘zan ortiqcha baho beriladi²⁴.

Yuqoridagilarga xulosa sifatida aytish mumkinki, Sovet hukumatining o‘tkazgan har qanday tadbiri O‘zbekistonda qatag‘onlik muhitini vujudga keltirdi. Sovet rejimiga qarshi ko‘tarilgan ozodlik harakatlarida ulamolarga “g‘oyaviy rahnamolik qilgan”, “aksilinqilobiy targ‘ibotlar olib borgan” likdagi ayblovlar qo‘yilib, ular tazyiq ostiga olingan.

Sovet hokimiyati o‘z vaqtida ayollar masalasida, xususan ularning emansipatsiyasi, jamiyat hayotiga faol va teng huquqli ishchi yoki kadr sifatida kirib kelishi, ayollarning butun davlat miqyosidagi o‘rni va davlatchilik faoliyatidagi ishtiroki masalasida o‘sha vaqtda jahonda mavjud juda ko‘p zamonaviy davlatlardan bir qadam oldinda bordi. O‘z vaqtida ulardan bu borada ko‘p narsalarni o‘rgandi. Ammo vaqt o‘tib, mamlakatda bolsheviklar mustahkamlanib, hayotning barcha jabhalarida total nazoratni qo‘lga olishi bilan sovet hokimiyati bu borada zamondan ortda qola boshladi. Va, oqibatda tarixining oxirgi yillarida

²¹ Усилит работу по раскрепощению женщин // Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.). Сборник документов и материалов. – М., 1971. – С. 167-170; За проведение в жизнь декретов о раскрепощении женщин // Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.). Сборник документов и материалов. – М., 1971. – С. 170-171 va b.

²² Партия во главе движения «Худжум» // Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.). Сборник документов и материалов. – М., 1971. – С. 187-189; Работа по раскрепощению женщины проводится повсюду // Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.). Сборник документов и материалов. – М., 1971. – С. 220-221. Женщины-деханки – вместе с партией // Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.). Сборник документов и материалов. – М., 1971. – С. 253-254. va b.

²³ Из письма заведующей женотделов г. Намангана Валиды Кучуковой в женотдел ЦК КП (б) Узбекистана (1924) // Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.). Сборник документов и материалов. – М., 1971. – С. 253-254.; Женщины сбрасывают паранджу // Из протокола пленума Ферганского окружного комитета КП (б) Узбекистана: ФВДА. 324-фонд, 1-руйхат, 149-иш, 15-17-варақ. va b.

²⁴ Арслонзода Р. Источниковедение. Учебник. – Т., 2019. – С. 301-303.

jamiyatdagi muammolar ichida ayollar masalasi, ularning reproduktiv salomatligi, jamiyat hayotidagi haqiqiy ma’nodagi faol ishtirok masalasida dunyodagi eng qoloq davlat sifatida tarixga kirdi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. – Т., 2002.
2. Адиб Холид. Ўзбекистон таваллуди. – Т., 2022. – 465 б.
3. Арслонзода Р. Источниковедение. Учебник. – Т., 2019. – 354 с.
4. Алиуллин. Хотин-қизлар ўртасида // Худосизлар. 1928. - № 6. – Б. 8-13.
5. Абдурашидхонов М. Хотираларимдан. Т.: Шарқ, 2001.
6. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. 2-jild: Ilmiy asarlar. – Т.: Ma’naviyat, 2000.
7. Башорат Жалол. 8 мартга бир совго // Янг йўл. 1927. - № 3. – Б. 11-15.
8. Валедницкая Г. Щёлковый художум. Очерки об ударницах Узбекистана // Правда Востока. 15 июня 1928 г.
9. Валидий А.З. Бўлингани бўри ер. Т.: Адолат, 1997.
10. Великий Октябрь и раскрепощение женщин Средней Азии и Казахстана (1917-1936 гг.). Сборник документов и материалов. – М., 1971. – 465 с.
11. Декларация прав трудящегося и эксплуатируемого народа. 3 (16) января 1918 г.
12. Елена Филозкуво (Елена Глазкова). Очилган ўзбек хотин-қизларига кўмак // Янги йўл. 1927. - № 7. – Б. 5-8.
13. Земельно-водная реформа подняла активность женщины Востока // Правда Востока. 12 ноября 1925 г.
14. Любимова С.Т. Декрет о чадре и Общество “Долой калым и многоженство” // Коммунистка. 1928. - №8. – С. 72-78.
15. О гражданском браке, о детях и о ведении книг актов состояния // Декрет ВЦИК и СНК РСФСР. 18 декабря 1917 г.
16. Об отмене калыма // Декрет ЦИК Советов Туркестанской Советской Социалистической Республики. 14 июня 1921 г.
17. Правда Востока. 21 декабря 1928 г.
18. Правда Востока. 25 декабря 1928 г.
19. Правда Востока. 10 января 1929 г.
20. Правда Востока. 10 января 1929 г.
21. Рашидхон. Ислом ва хотин-қизлар // Худосизлар. 1928. - № 6. – Б. 8-13.
22. Саноатда хотин-қизлар меҳнати// Янги йўл. 1931. – №3. – Б. 5-6.
23. Собирова Д. Ўзбекистонда совет тоталитар тузумининг аёллар масаласидаги сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 40–80-йиллари). Ўқув қўлланма. – Т., 2010.
24. С.Х. Хотин-қизлар озодлигининг ленинча қўйилиши // Янги йўл. 1927. - № 3. – Б. 5.

25. Хамза. Турсуной марсияси. // Янги Фарғона. 1928 йил 5 июль.
26. Хожи Муин. Хотин-қизлар масаласи // Меҳнаткашлар товуши. 198 йил 28 июнь.
27. Хонқулов Ш. Х. Ҳамза Ҳакимзода Ниёзийнинг маърифат йўли // Водийнома. Андижон давлат университети. 2019. № 4 (15). – Б. 99-102.
28. Чўлпон. Турсуной саҳнада // Ер юзи. 1928 йил 30 июнь.
29. Сафаров Н. Кўрган кеирганларим. – Т., 1968. – 308 б.
30. Сафаров Н. Олияхон Султонова. – Т., 1953. – 55 б.
31. Сафаров Н. Хадича Ахроровна. – Т., 1953. – 24 б.
32. Сафаров Н. Турсуной. – Т., 1960. – 51 б.
33. Фитрат. Зайнаб // Худосизлар. 1928. - № 4. – Б. 28-33.
34. Шариат ва шўро қонунида хотин-қизлар // Янги йўл. 1929. - №4. – Б. 8-9.
35. Шокир Сулаймон. Шоирнинг кунлари. Қизил қалам мажмуаси II. – Самарқанд-Тошкент: Ўздавнашр, 1959.
36. Эрназаров Т. История печати Узбекистана. – Т., 1977.
37. Янги йўл. 1927. - № 10. – Б. 31-33.